Kafel Savdo

Versiya: 2026-11-03 (kafel-savdo 1a1de67). Videolar: softdoc.uz/qollanmalar. Barcha ism, tovar va summalar — demo uchun uydirma ma'lumot.

Kafel do'koni uchun: mijoz sayti (katalog, kafelni xona suratida va 3D da ko'rish, hisob), kirim quti bilan, ton va kalibr, saytdagi hisobdan chekkacha savdo va ustalar bonusi.

Mundarija


- Mijoz sayti: Mijoz sayti katalogi va QR stend; Kafelni xona suratida ko'rish va hisob; 3D xona va aniq hisob
- Ombor va savdo: Kirim (quti → m²), ton va kalibr; Saytdagi hisobdan chekkacha
- Ustalar: Ustalar va bonus
- Ko'p so'raladigan savollar

Mijoz sayti

Mijoz sayti katalogi va QR stend

Katalog, qidiruv va filtrlar, kafelni xonada ko'rishga o'tish, do'kondagi QR yorliqlar. Video: 1:39.

1. Mijoz sayti (/katalog): har kafelning rasmi, o'lchami va narxi; narx dasturdagi sotuv narxidan olinadi.
2. Filtr: Pol / Devor, o'lcham; qidiruv — nomi, kolleksiya yoki o'lcham. Ro'yxat 24 tadan — «Ko'proq ko'rsatish».
3. Kafelni bosing — u xona suratida ochiladi va hisob tayyor bo'ladi.
4. Xodim: Boshqaruv → «QR stend» — yorliqlarni chop eting va namunalar yoniga qo'ying; mijoz skanerlab shu kafelni o'z xonasida ko'radi.




Katalog: filtrlar va kafellar

Kafelni xona suratida ko'rish va hisob

Namunaviy xona, kafel tanlash, terilish va chok, quti/yelim/zatirka hisobi, o'z xona surati, solishtirish. Video: 2:00.

1. «Xonamni hisoblash» → «Mening xonam»: namuna (hammom, oshxona, mehmonxona) yoki «O'z xonangiz suratida ko'ring».
2. O'z suratingizda ko'k nuqtalarni pol burchaklariga suring; mebel ustidagi kafelni «O'chirish» cho'tkasi bilan tozalang.
3. Kafel ro'yxatidan tanlang; terilishi (to'g'ri, shaxmat, g'isht, diagonal, archa), chok qalinligi va rangi, 90° burish.
4. Joy (pol/devor) va o'lcham — hisob: quti, maydon, isrof, olinadigan m², dona, yelim, zatirka, jami summa.
5. «Solishtirishga» bilan variantlarni eslab qolib, «Yonma-yon ko'rish».

6. «Saqlash va ulashish» — ism va telefon (ixtiyoriy) bilan hisob havolasi; do'kon «Mijoz hisoblari»da ko'radi.




Hisob: quti, isrof, yelim va jami

> **Eslatma.** Hisob taxminiy — aniq miqdorni usta bilan kelishib oling.

3D xona va aniq hisob

Xona o'lchami, jihozlar, pol va devorlarga turli kafel, eshik/deraza, ko'rinishlar, hisob usuli. Video: 1:59.

1. «3D xona»: uzunlik, eni, balandlik.
2. Jihozlar: hammom/oshxona/mehmonxona to'plami; sudrab joylang, R bilan buring; vanna va dush ostiga kafel yotqizilmaydi.
3. Sirtni tanlang (pol yoki devor) va kafelni bosing; «Shu kafelni barcha devorlarga».
4. Eshik va derazalar qo'shiladi; ko'rinish — yuqoridan, 3D, ichkaridan; 📸 bilan surat.
5. Hisob usuli: maydon yoki terish bo'yicha, zaxira %, masalliqlar → har kafel qutisi va umumiy summa.




3D xona hisobi

Ombor va savdo

Kirim (quti → m²), ton va kalibr

Kafel kirimi quti bilan, partiya toni va kalibri, tasdiqlash, savdo zaliga chiqarish va qoldiq. Video: 2:05.

1. «Qabul va kirim» → ombor va yetkazuvchi hujjati raqami → «Kirim yaratish (qoralama)».
2. Qator: kafel, yetkazuvchi, miqdor va birlik «quti» (m² ga o'zi o'giriladi), m² narxi, ton va kalibr → «Qator qo'shish».
3. «Hujjatni tasdiqlash» — qoldiq omborga tushadi.
4. «Javonga chiqarish»: ombor → savdo zali, kafel va miqdor (m²) → tasdiqlash. Kassa savdo zalidan sotadi.
5. «Ombor va partiya»: qoldiq m² da, «Partiyalar» — ton va kalibr.




Kirim qatori: quti, ton, kalibr

> **Eslatma.** Kassada qatorga partiya (ton) tanlanadi; aralash ton bo'lsa dastur ogohlantiradi.

Saytdagi hisobdan chekkacha

Mijoz hisoblari, chekka aylantirish, ton, to'lov, «Sotildi» va usta bonusi. Video: 1:16.

1. Bosh sahifa: «Saytdan yangi hisob» va to'lanmagan usta bonusi.
2. «Mijoz hisoblari»: holat — yangi, kassada, sotildi, bekor; «Ko'rish» — mijoz ko'rgan hisob sahifasi.
3. «Chekka aylantirish» — kassada qoralama chek (narx kassadagi joriy narx); partiya (ton) ni tekshiring.
4. To'lov (naqd/karta, «Aniq») → «Sotuvni yakunlash» — hisob «Sotildi», ustaga bonus yoziladi.
5. Bonus berilgach — «Bonus to'landi».




Hisob sotildi va bonus

Ustalar

Ustalar va bonus

Usta bonusi foizi, usta qo'shish, usta kabineti va havolasi, usta orqali kelgan hisob. Video: 1:55.

1. Sozlamalar → Kafel: saytdagi telefon, manzil, Telegram, usta bonusi %, yelim va zatirka.
2. Boshqaruv → «Ustalar»: ism, telefon, login → «Qo'shish»; parol bir marta ko'rsatiladi. Har ustaga alohida foiz mumkin.
3. Usta /usta/kirish dan kiradi: kabinetda hisoblar, sotilganlar, bonus; shaxsiy havola va QR, Telegram xabarlari.
4. Usta yoki uning havolasi orqali saqlangan hisob ustaga yoziladi; hisob sahifasida «Loyihani tayyorladi».



Usta tayyorlagan hisob

> **Eslatma.** Xodim sessiyasi ochiq brauzerda usta kirishi rad etilishi mumkin — usta o'z telefonidan yoki boshqa brauzerdan kirsin.

Ko'p so'raladigan savollar

Narx saytda qayerdan olinadi?

Dasturdagi kafel kartasining sotuv narxidan (m² yoki dona). Narx o'zgarsa sayt ham, kassa ham yangi narxni ko'rsatadi.

Mijoz hisobini saqlasa, men qayerda ko'raman?

Boshqaruv → «Mijoz hisoblari» (bosh sahifada «Saytdan yangi hisob» soni). «Chekka aylantirish» bilan kassaga o'tkazasiz.

Kirimni dona yoki quti bilan qilsam bo'ladimi?

Ha. Kirim qatorida birlik «quti» yoki «dona» — dastur m² ga o'zi o'giradi.

Usta bonusi qachon yoziladi?

Hisob chek bilan sotilganda, o'sha paytdagi foiz bilan. Bonusni berganingizda «Bonus to'landi» ni bosing.

Savol qolsa: softdoc.uz → Aloqa. Bepul demo: kafel.softdoc.uz